

Sulhonberdiyeva Shodiya Shuhrat qizi

TMI bank ishi fakulteti 1 bosqich talabasi

Mohir hikoyanavis, yozuvchi va o'zbek adabiyotning atoqli namoyandasi Abdulla Qahhorning umri Qo'qon atrofidagi Yaypan, Kudash, Buvayda, Olqor, Oqqo'rg'on singari qishloqlarda o'tadi. Abdulla dastlab Buvaydadagi eski maktabda o'qiydi, keyin Oqqo'rg'ondagi jadid maktabida, Qo'qondagi internatda, 1922-1924 yillar mobaynida esa Qo'qonda ochilgan o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda tahsil oladi. U 1926-yilda SamDU ning tayyorlov fakultetini bitiradi va 1930 yilga qadar O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetida o'qiydi. Umri davomida barakali ijod qildi, «Qizil O'zbekiston», «Mushtum», xotin-qizlar gazetasi «Yangi yo'l» da «Nish», «Norin Shilpiq», «Mavloni Kufur», «Guluyor», «Erkaboy», «E-boy» imzolari bilan qatnashib turgan. Chexovni o'ziga ustoz deb bilgan. U nafaqat mashhur hikoyanavis balki mohir tarjimon ham bo'lgan. Abdulla Qahhor Pushkinning «Kapitan qizi» qissasini, Gogolning «Uylanish» va «Revizor» komediyalarini, rafiqasi Kibriyo Qahharova bilan birga Tolstoyning «Urush va Tinchlik» asarini o'zbek tiliga o'g'irgan.

Adib hikoyalarini shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin: tarixiy hikoyalar, hajviy hikoyalar, zamonaviy hikoyalar. Abdulla Qahhor «Xotinlar», «Asror bobo», «Ming bir jon», «Mahalla» hikoyalarida zamondoshlarining ma'naviy dunyosini, insoniy xislatlarini, axloqiy pokligini, ruhiy go'zalligini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan. U hikoyalarida xalq maqollari va matallaridan o'rinli foydalangan. Bu asarlar barchasi farzandlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega:

«O'g'ri» hikoyasida o'zgarlar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirib olgan amaldorlar obrazi berilgan. Unga «Otning o'limi itning bayrami» maqoli epigraf qilib olingan. «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi» - kabi misralar shu hikoyadan olingan.. «O'g'ri» hikoyasida «Begim deguncha belim sinadi», «Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi», «Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz», «Quruq qoshiq og'iz yirtadi», «O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan» kabi maqollar qo'llangan.

«Bemor» hikoyasida qattiq og'rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom o'jiz, qo'li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to'ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi «begunoh go'dak» - qizcha holati bayon etilgan. Ona esa har qanday vaziyatda ham o'z bolasini o'ylaydi. Bu hikoyaga «Osmon yiroq, yer qattiq» maqoli epigraf qilib olingan.

«Dahshat» hikoyasida Unsinning «O'g'ri» dagi Qobil bobo, «Anor» dagi Turobjon, «Bemor» dagi Sotiboldidan farqi shuki, u o'z salafariga o'xshab mute'lik asirasi va jaholat qurboni bo'lib yashashni istamaydi. Olimbek dodxonning sakkiz xotini ichida eng kichigi -



bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelinchak - Unsin agar eri butunlay javobini bersa, Ganjiravonga - o'z uyiga ketmoqchi bo'ladi. Dodxonning katta xotini Nodirmohbegim bir voqeani aytib berayotganda «- Bola edim. Raxmatli dadam gap yer edilar. Bir mexmonxona yigit.. . Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Xozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?» - degan gap bo'libdi» - deydi. Unsin Dodxo bergan topshiriqni bajaraman deb borganda o'tinni unutadi va hikoya so'ngida qo'rqinchdan jon beradi.

«Ming bir jon» hikoyasi 1956 yilda yozilgan. Asar qahramonlari quyidagilar: jikkakkina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib olgan, «bu xotinning joni bitta emas, ming bitta» degan Mirrahimov, sakkiz oydan beri palatadan chiqmay yotgan, o'n yildan beri xasta ayol Mastura Alieva, Masturaning eri Akromjon, Hoji aka.

Bu asarlarning barchasi o'tmishda bo'lgan voqealarni badiiy yosinda mahorat bilan yog'rilganligini ko'rsatadi. O'tmishda bo'lgan bu voqealar hozirgi kunda yo'qligi albatta barchamizga ayondir. Bularni o'qigan inson o'tmishda shunchalar adolatsizlik, nohaqlik, faqat boylargina yashashga haqlidek ko'rinishi yaqqol ko'rib turadi. Har bir hikoyasida olam olam ma'no borligini har bir inson tushina oladi. Qahhorning har bir hikoyasi farzandlar tarbiyasi uchun katta ahamiyati bor desak mubolag'a bolmaydi. Birgina "Bemor" hikoyasida kichikkina qizni tong azondan turib onasi uchun duo qilishi har bir insonni ongida oz bo'lsa ham o'tmish haqida tasavvur uyg'otadi va uni o'ylashga majbur qiladi. Hozirgi kuni uchun shukronalik hissini uyg'otadi. Adibning so'zga xasisligi har bir kitobxonni fikrlashga, o'ylashga majbur qiladi.

"Yozuvchining maxorati shundaki, butun bahorni chigitdek keladigan g'ora ichiga qamab bera oladi..." degan edi Abdulla Qahhor.

Darxaqiqat, go'zallik oshuftasi bo'lgan adib insonning ruh va qalb go'zalligini qo'shiqdek o'z asarlariga chuqur singdira olgan haqiqiy yozuvchi, o'zbek adabiyotini dunyo badiiy tafakkuri maqomiga olib chiqqan mashxur san'atkordir. U umuminsoniy ma'naviy - ruhiy dard va malham haqida nafaqat so'zladi, balki uni kitobxonlar qalbiga jo qildi. Bu beqiyos yaratig'lar uning bebaho asarlarida bo'y ko'rsatib kelmoqda. Uning hikoyalari turli mavzularda yaratilgan bo'lsa-da, ularning hammasini zalvorli hayotiy muammolar, o'ziga hos harakterli qahramonlar, birlashtirib turadi. Kichik janrdagi ulkan mazmun namoyon bo'ladi.

A.Qahhorning mahorati shundaki, hayot haqiqatini badiiy libosga burkab har tomonlama yetuk asarlar yaratadi. Abdulla Qahhor asarlariga takrorlanmas rang va ohang bag'ishlagan qudrat hayotdir. Yozuvchi umri davomida dildan o'tkazgan o'ylari, yoshlikda ko'rgan - kechirganlari, hayotini chulg'agan fikrlarini umumlashtirib badiiy shaklga soldi.

“Mahalla” hikoyasida insonlararo mehr-oqibat tuyg'ularining ifodalanishi

Insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat tuyg'ularining o'ziga xos ifodasi aks ettirilgan asarlardan biri "Mahalla" hikoyasi bo'lib, unda bir umidsizlikka tushgan insonning mahalladagilarning samimiy munosabatlari orqali hayotga qaytarilganligi ko'rsatilgan.



Hikoyaga Erkin Vohidovning insonlarning mehr quyoshi odamzodga jon baxsh etishi haqidagi to'rtligi epigraf qilib tanlangan. Bu asarning mohiyatini to'laqonli qamraydi. Hikoya Rohat buvi va Hikmat buvalarning ellik uch yillik o'ziga xos hayot tarzi: "... ellik uch yildan beri mehr atalmish ulkan tuyg'u rishtasini pilla qurtiday bir maromda asta-sekin chuvib, bir-birining qalbini o'rab-chulg'ab kelgan..." umrlarining kampirning o'limi sababli zavol topishi, so'ngra yolg'iz qolgan Hikmat buvaning yolg'izlikdan iztirob chekishi kabilar aks ettirilgan:

Hikmat buvaning iztiroblari uning bolalari qilayotgan g'amxo'rliklar kuchaygani sari battar oshib borishi tasviri bilan aks ettirilgan. Farzandlari nima qilsalar, "Onang borida shu ishni qilmading" qabilidagi gaplari bilan javob qaytarishi uning ruhiyatini dalolatlaydi. Uning holati bir poy eski kalish detali orqali izohlanaadi. Chunki o'sha kalishni kampiri oyog'i og'rib qolganida kiygan bo'ladi. Bundan chol bolalarini kampirini yaxshi qaratmaganliklarida ayblaydi. Bir kuni u yo'qolib qoladi. Keyinchalik bilishsa, u qabristonga borib, kampirining yonidan go'r qazitib qaytadi. Lekin uyiga qaytayotgan chog'ida bir cho'tkachi uning axvolini ko'rib, unga bir piyola choy tutib aytgan gaplari chol ruhiyatining o'zgarishiga sabab bo'ladi:

Xafa bo'lmay yuribsizmi, otaxon... Kampir onam alomat ayol edilar... siz o'sha kuni o'zingiz bilan o'zingiz ovora bo'lib ta'ziyaga kelgan odamlarni payqamadingiz... Ana odamu... Mahallaga sig'may ketdi! Mahallamizning ko'chasi bir metr cho'kdi!.. Kampir onam dunyoga kelib odam ekkan ekanlar. Dunyoga kelgan odam avvalboshi odam ekishi kerak ekan. Men ibrat oldim...

Hikoyaning yana bir epizodik qahramoni bo'lgan mahallalik shifokor Hikmat buvaning axvolini ko'rib, u ham kampirdan gap ochadi:

Onaxonimiz ta'rifga sig'maydigan ayol edilar, shuncha odam bekorga kelgani yo'q! Lekin, otaxon, mahallamizga biron sakkiz chelakli bitta samovar kerak ekan, o'sha kuni juda-juda bilindi. Mahalladan pul yig'sak, xonadonga necha puldan tushadi?

Cholning hamiyati qo'zg'ab ketdi.

O'g'lim bilan kelinimning bitta samovarga kuchi yetib qolar, - dedi.

Shifokor undan shu gapni kutgan ekanmi, jilmayib qo'ydi. Mana shu jilmayishning tagida cholni hayotga qaytarish, uning dardiga ko'pchilikning dardi orqali malham qo'yish fikri yashiringan edi. Chol haqiqatan ham, mahallaning to'y-m'arakalarida ishlatiladigan idish-tovoq, samovaru qozongacha jamlab, ularni tartib bilan ishlatilishini yo'lga qo'yib oladi, o'zi uchun qazdirgan go'rini boshqalarga berishni qabriston mudiridan so'rab xat yozishi bilan asar yakunlanadi.

"Yozuvchi mazkur hikoyada kampirining vafotidan so'ng o'lim vasvasasiga tushib qolgan bir insonning bunday tushkun bir kayfiyatdan mahalladoshlari va atrofidagi odamlarning mehri, e'tibori tufayli qanday kutilganini, hayotga qanday qaytganini o'ta tabiiy, jonli, hayotiy va sodda tasvirlarda berishga muvaffaq bo'lgan".

Abdulla Qahhorning har bir hikoyasida insoniy fazilatlar farzandlar tarbiyasiga mos holda yozilgan. Barcha hikoyalari adolat bilan sug'orilgan.



Hikoya janri o‘zbek adabiyotida azaldan shakllanib, taraqqiy etib kelayotgan epik janrlardan hisoblanadi. Ushbu janrning rivojlanishi yangicha mazmun bilan boyib borishida ulkan hissa qo‘shgan adiblarimizdan biri Abdulla Qahhor bo‘lib, uning hikoyalari o‘zbek adabiyotida mustahkam o‘rniga ega ekanligi, o‘ziga xos xarakterlar talqini bilan ajralib turishi ularni turli masalalarga ko‘ra tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Umuman olganda, Abdulla Qahhor hikoyalarining aksari ma’naviy-axloqiy muammolar talqin etilgan asarlar sirasiga kiradi. Ularni atroflicha o‘rganish bugungi adabiyotshunoslikning oldida turgan dolzarb masalalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor “Mahalla” hikoyasi;
2. Ziyonet.uz internet sayti;
3. Google internet sayti;
4. Abdulla Qahhor “Anor” hikoyalar to‘plami.

